


## IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI

2023-yil yanvar-dekabr oylarida 18 171,4 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 118,1 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 74,2 % yoki 13 483,9 mlrd. so‘m investitsiyalar jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 25,8 % yoki 4 687,5 mlrd. so‘m moliyalashtirildi.

Shuningdek, markazlashgan moliyalash-tirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2 393,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 777,7 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi.




## Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami		shu jumladan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so‘m	o‘shish sur‘ati, %da	mlrd. so‘m	o‘shish sur‘ati, %da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>18 171,4</b>	<b>118,1</b>	<b>11 259,6</b>	<b>151,6</b>
Andijon sh.	3 314,2	102,6	1 479,1	114,4
Xonobod sh.	203,8	61,1	43,6	22,4
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	737,2	61,7	124,0	2,3 m.
Andijon	1 003,7	110,8	426,1	2,2 m.
Baliqchi	693,2	118,0	457,8	129,1
Bo‘ston	214,8	86,5	62,4	60,7
Buloqboshi	6 145,5	340,9	5 951,9	3,7 m.
Jalaquduq	708,6	135,2	354,6	2,5 m.
Izboskan	308,4	91	121	66,7
Ulug‘nor	286,4	114,4	164,3	163,6
Qo‘rg‘ontepa	493,3	81,5	118,0	47,6
Asaka	1 111,7	52,8	676,8	51,1
Marhamat	585	115,7	229,3	145,7
Shahrixon	754,9	108,6	300,6	95,4
Paxtaobod	573,1	109,6	187,8	124,9
Xo‘jaobod	1 037,6	67,2	562,3	55,1

## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


Hajmi, mlrd. so'm

O'sish sur'ati, % da



## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da

### Andijon viloyati



2023-yil yanvar-dekabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar— 2 782,8 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,3 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,5 % yoki 1 904,7 mlrd. so'm o'zlashtirildi.


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 10 704,1 mlrd. so'mni yoki 58,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 386,0 mlrd. so'm, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 555,4 mlrd. so'm, Respublika byudjeti 1 631,0 mlrd. so'm, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 207,3 mlrd. so'm miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.


## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'iy nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.



## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da







Andijon viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 5 150,9 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 28,4 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 12 141,9 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 66,8 %) va boshqa xarajatlarga 878,6 mlrd. so'm (4,8 %) o'zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Buloqboshi tumanida kuzatildi – 98,2 % yoki 6 035,3 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Asaka tumanida kuzatilib, 32,5 % ni yoki 361,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Andijon shahrida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 62,4 % yoki 2 067,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, jamiga nisbatan % da**




**Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da**

**Asosiy kapitalga investitsiyalar** – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi.



## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da


### Andijon viloyati



### Andijon shahri




### Xonobod shahri






## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da


### Oltinko‘l tumani



### Andijon tumani




### Baliqchi tumani



## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da


### Bo'ston tumani



### Buloqboshi tumani




### Jalaquduq tumani




**Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da**


**Izboskan tumani**



**Ulug'nor tumani**



**Qo'rg'ontepa tumani**



## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da


### Asaka tumani



### Marhamat tumani




### Shahrixon tumani




## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da

### Paxtaobod tumani



### Xo'jaobod tumani



**Statistik tahlilni o'tkazish maqsadlarida** asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda shakllanadi: qo'yilma turlari, texnologik, takror ishlab chiqarish tarkiblari, iqtisodiy faoliyat turlari, moliyalashtirish manbalari bo'yicha.




## Andijon viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da




18 171,4 mlrd. so'm




## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 7 501,3 mlrd. so'mni yoki, 2022-yilning mos davriga nisbatan 3,4 m.ni tashkil etdi.



O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 555,4 mlrd. so'mni yoki, 2022-yilga nisbatan 93,8 % ni tashkil etdi.



Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 3202,9 mlrd. so'mni yoki, 2022-yilga nisbatan 69,0 % ni tashkil etdi.




**O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar**



**Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar**



**To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar**



■ To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar

■ O'z.R. kafolati ostidagi xorijiy kreditlar

■ Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya  
va kreditlar, mlrd. so'm**


	<b>To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</b>	<b>O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar</b>	<b>Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar</b>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>7 501,3</b>	<b>555,4</b>	<b>3 202,9</b>
Andijon sh.	214,7	444,0	820,4
Xonobod sh.	30,4	-	13,2
Oltinko'l	124,0	-	-
Andijon	264,7	19,8	141,6
Baliqchi	140,9	-	316,9
Bo'ston	11,7	-	50,7
Buloqboshi	5 880,3	48,2	23,4
Jalaquduq	335,7	13,0	5,9
Izboskan	56,3	-	64,7
Ulug'nor	158,5	-	5,8
Qo'rg'ontepa	-	-	118,0
Asaka	25,9	30,4	620,5
Marhamat	58,7	-	170,6
Shahrixon	11,7	-	288,9
Paxtaobod	187,8	-	-
Xo'jaobod	-	-	562,3



**To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar** – ustav kapitalda 10 foizdan kam bo'lmagan ulushga ega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo'yilmalaridir.




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalar **iqtisodiy faoliyat turlari** bo'yicha amaldagi faoliyat turlari tasniflagichiga IFUT-2 ga asosan taqsimlanadi.

## Andijon viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish



**Investorlar** – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.



## Andijon viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish


	<b>Turar-joylar, ming kv.m</b>	<b>Ulardan: qishloq joylardan ming kv.m</b>	<b>Suv tarmog‘i, km</b>	<b>Gaz tarmog‘i, km</b>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 129,0</b>	<b>732,7</b>	<b>1 007,3</b>	<b>15,5</b>
Andijon sh.	177,2	-	25,4	0,1
Xonobod sh.	8,2	-	9,8	-
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	92,5	55,2	55,8	-
Andijon	68,5	66,4	22,7	-
Baliqchi	59,1	43,8	158,8	5,1
Bo‘ston	31,4	22,8	6,9	-
Buloqboshi	34,8	22,4	36,6	-
Jalaquduq	80,1	67,4	77,6	-
Izboskan	35,4	26,4	97,5	-
Ulug‘nor	18,0	18,0	6,3	-
Qo‘rg‘ontepa	86,9	66,0	67,5	-
Asaka	118,9	89,4	163,6	-
Marhamat	72,0	60,3	81,2	-
Shahrixon	66,0	52,1	96,9	10,3
Paxtaobod	135,6	110,2	52,1	-
Xo‘jaobod	44,4	32,3	48,6	-

## Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari

2024-yilning 1-yanvar holatiga Andijon viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2 111 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 731 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 34,6 % Andijon shahrida joylashgan.


### 2024-yil 1-yanvar holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda




Shuningdek, Andijon shahrida 731 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 34,6 %), Asaka tumanida – 190 ta (9,0 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-dekabr uchun)

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, Andijon viloyatida jami 7 444,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil etdi.



*Maʼlumot uchun:* qurilish faoliyati - bu, oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



**Shahar va tumanlarning qurilish ishlari hajmi va o‘rinish sur‘atlari,  
mlrd. so‘m va foizda**



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Andijon shahri (2 504,0 mlrd. so‘m), Andijon tumani (915,3 mlrd. so‘m) va Shahrixon tumanida (511,4 mlrd. so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 73,7 % ulushni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 111,6 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,0 % ulushni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 115,2 % ni tashkil etdi;


695,5- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,3 % ulushni va 2022-yilning mos davriga nisbatan 115,4 % ni tashkil etdi.




**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi, %da (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 68,4 % yoki 5 093,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



### Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi






**Umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi**  
(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)

	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so‘m	Ulushi, jamiga nisbatan % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>5 093,7</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	1 626,8	31,9
Xonobod sh.	165,9	3,3
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko‘l	306,1	6,0
Andijon	567,7	11,1
Baliqchi	178,0	3,5
Bo‘ston	223,8	4,4
Buloqboshi	107,2	2,1
Jalaquduq	150,1	2,9
Izboskan	141,8	2,8
Ulug‘nor	102,5	2,0
Qo‘rg‘ontepa	248,3	4,9
Asaka	187,0	3,7
Marhamat	220,9	4,3
Shahrixon	372,7	7,3
Paxtaobod	270,9	5,3
Xo‘jaobod	224,0	4,4

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Andijon shahrida (1 626,8 mlrd. so‘m), Andijon tumanida (567,7 mlrd. so‘m), Shahrixon tumanida (372,7 mlrd. so‘m) va Oltinko‘l tumanida 306,1 mlrd. so‘m) qayd etildi.

**Korxonalar turlari bo'yicha bino va inshootlar  
qurilishi asosiy ko'rsatkichlari, mlrd. so'mda**  
(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)




Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish” faoliyati bo‘yicha “faoliyat turi bo‘yicha o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi”** ko‘rsatkichi qo‘llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,8 % ni tashkil etib, 2022-yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2022-yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamayib, 63,6 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 33,6 % tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha bino va inshootlar qurilishi, mlrd. so'mda**  
(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)



*Ma'lumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Shahrixon (82,1 %), Marhamat (81,5 %) va Paxtaobod tumanlari (80,5 %)da kuzatildi.


**Korxonalar turlari bo'yicha fuqarolik obyektlarini qurishning asosiy ko'rsatkichlari, mlrd. so'mda**  
(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)



**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 10,2 % ni tashkil etdi. Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 89,8 % ni tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha fuqarolik obyektlarini qurish, mlrd. so'mda**  
(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)



**Ma'lumot uchun:** Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinko'l tumanida (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 25,2 %), Xonobod shahrida (25,8 %) va Buloqboshi tumanida (21,2 %) kuzatildi.

**Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ko'rsatkichlari, mlrd. so'mda**  
(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022-yilning mos davriga nisbatan 5,6 % punktga kamaydi va 2,6 % ni tashkil etdi.

Qolgan 97,4 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 5,6 % punktga ko'paydi.


**Shahar va tumanlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari hajmi, mlrd. somda  
(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)**



*Ma'lumot uchun:* Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinko'1 tumanida (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 14,5 %), Xonobod shahrida (13,8 %) va Bo'ston tumanida (11,5 %) kuzatildi.

## Korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

### Jami hajmga nisbatan ulushi




Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**68,5 %**



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**110,0 %**



Norasmiy sektor

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**93,8 %**



**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari, jamiga nisbatan ulush (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)**




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 300,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan 68,5 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,1 % ga kamayib, 4,0 % ni tashkil etdi.


**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari, jamiga nisbatan ulush**  
(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 71,2 % to'g'ri kelib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 3,6 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan 110,0 % ni tashkil etgan holda 5 302,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlari hajmi va o'sish sur'atlari**  
(2023-yilning yanvar-dekabr oylarida)


*hajmi, mlrd. so'mda,*

*o'sish sur'ati, %da*



**Ma'lumot uchun:** ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (1 972,0 mlrd. so'm), Andijon tumanida (766,2 mlrd. so'm) va Shahrixon tumanida (410,2 mlrd. so'm) qayd etildi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektorning ulushi, %da**  
(yanvar-dekabr oylarida)




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 24,7 % ni yoki 1842,0 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 93,8 % ni tashkil etdi. Shundan 1532,5 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 95,1 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 70,5 mlrd. soʻmni va 55,4 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 239,0 mlrd. soʻmni va 106,5 % ni tashkil etdi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha qurilish ishlarining umumiy hajmidagi  
norasmiy sektorning hajmi va o'sish sur'atlari**  
(yanvar-dekabr oylarida)


*hajmi, mlrd. so'mda,*

*o'sish sur'ati, %da*



**Ma'lumot uchun:** ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (297,8 mlrd. so'm), Asaka tumanida (177,5 mlrd. so'm) va Paxtaobod tumanida (214,2 mlrd. so'm) qayd etildi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'mda**  
(yanvar-dekabr oylarida)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 301,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa, 7 143,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 4,0 % va 96,0 % ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Andijon tuman (ushbu shahardagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100 %), Oltinko'l tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 100 %) va Paxtaobod tumanida (ushbu tumandagi umumiy qurilish ishlarining 100 %) qayd etildi.

## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar bu** – real mablag'larni yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, kapital ta'mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, yer maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga** barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

**Chet el investitsiyalari** – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

**To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu** – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxonalar aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqi ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

**Investorlar** – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat sub'ektlari hisoblanadi.

**Buyurtmachilar** – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investorning o'zi, shuningdek, investor tomonidan amaldagi korxonalarni, binolarni, inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta'mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Shu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo'lsa, aralashmasliklari lozim.

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarini montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.